# “Texnik suvlarni tozalash va yumshatish jarayonlarini takomillashtirish” nomli monografiya chop etildi

O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti olimlari tomonidan o’zbek tilida “Texnik suvlarni tozalash va yumshatish jarayonlarini takomillashtirish” nomli yangi monografiya chop etildi.




Ushbu monografiyada respublikamizdagi neftni qayta ishlash korxonalarida neft xom-ashyolarini sovitish uchun ishlatiladigan oqava suvlarni tozalash va yumshatish bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Sanoat oqova suvlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, ularning tarkibidagi qattiq zarrachalarning dispersligi va yopishqoqligi hamda ularning gravitatsiya maydonida cho’kish tezliklari aniqlangan, jarayon samaradorligining bosimga, gidravlik qarshilikga, reagent nisbatlariga korrelyatsion bog’liqligi ochib berilgan, mayda dispersli va yirik qattiq zarrachalarni ajratishning yuqori darajadagi kompleks usuli ishlab chiqilgan va turli o’lchamdagi qattiq zarachalarni cho’kish tezliklari aniqlangan, texnik aylanma suvlarni yumshatish, mayda va yirik dispers zarrachalardan tozalash jarayonining maqbul rejim-konstruktiv ko’rsatgichlari aniqlangan.

Monografiyadan muhandis-texnik xodimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, neftni qayta ishlash korxonalari, neftkimyoviy, kimyoviy va ishlab chiqarishning turdosh sohalarida, bundan tashqari oliy ta’lim

muassasalarining talabalari va o’qituvchilari foydalanishlari mumkin.